

**O'ZBEKISTONDA MILLIY ILMIY KADRLAR TAYYORLASHDA
HABIB ABDULLAYEVNING TUTGAN O'RNI**

Qahhorov Shohjahon
*Guliston davlat pedagogika
instituti 3-kurs talabasi*

Annotatsiya: maqolada akademik Habib Abdullayevning O'zbekistonda milliy ilmiy kadrlar tayyorlashdagi faoliyati, ilmiy maktab yaratishdagi xizmatlari hamda yosh olimlarni qo'llab-quvvatlash siyosati tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Habib Abdullayev, ilmiy kadrlar, Fanlar akademiyasi, aspirantura, ilmiy maktab, geologiya.

**РОЛЬ ХАБИБА АБДУЛЛАЕВА В ПОДГОТОВКЕ ОТЕЧЕСТВЕННЫХ
НАУЧНЫХ КАДРОВ В УЗБЕКИСТАНЕ**

Каххоров Шохжахон
*Студент 3-го курса
Гулистанского государственного
педагогического института*

Аннотация: в статье рассматривается деятельность академика Habib Abdullayev в области подготовки национальных научных кадров в Узбекистане, создания научной школы и поддержки молодых ученых.

Ключевые слова: Хабиб Абдуллаев, научные кадры, Академия наук, аспирантура, научная школа, геология.

**THE ROLE OF KHABIB ABDULLAEV IN THE TRAINING OF DOMESTIC
SCIENTIFIC PERSONNEL IN UZBEKISTAN**

Qahhorov Shohjahon
*3rd year student of Gulistan
State Pedagogical Institute*

Abstract: the article analyzes the contribution of akademik Habib Abdullayev to the development of national scientific personnel, scientific schools, and the support of young researchers in Uzbekistan.

Keywords: Habib Abdullayev, scientific personnel, Academy of Sciences, postgraduate studies, scientific school, geology.

XX asrning ikkinchi yarmida O'zbekiston ilm-fani taraqqiyotida akademik Habib Muhammadovich Abdullayev alohida o'rin tutadi. U nafaqat yirik geolog olim, balki fan tashkilotchisi, iste'dodli rahbar va milliy ilmiy kadrlar tayyorlash tizimini shakllantirgan fidoyi shaxs sifatida ham tarixda muhim iz qoldirdi. Ayniqsa, uning O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasiga rahbarlik qilgan yillarida respublikada ilmiy maktablar shakllandi, yangi institutlar tashkil etildi hamda yuzlab yosh mutaxassislar ilm-fanga jalb qilindi. Taniqli olim H.Abdullayev haqida zamondoshlari, hamkasblari va shogirdlari tomonidan esdaliklar, xotiralar, risolalar hamda ilmiy maqolalar yaratilgan. Yozuvchi Rajabboy Raupovning "Ustun" xotira kitobida [1. 240 b] Habib Abdullaevning hayoti va faoliyati badiiy jihatdan o'z aksini topgan. Andijon davlat universiteti nashri bo'lmish "Vodiynoma" jurnalining "Tarixiy shaxslar" rukni ostida e'lon qilingan [2; 3] qator maqolalarda hamda yosh olim Jasur Hasanov ilmiy tadqiqotlarida H.M.Abdullayevning hayoti va ilmiy faoliyatining shu davrgacha o'rganilmagan yangi qarorlari, unga nisbatan qilingan tazyiq va o'rinsiz tanqidlar aniq misollar bilan ochib berilgan. Mazkur maqolada aynan Habib Abdullayev faoliyati bo'yicha yuqorida qilingan tadqiqotlarni tahlil qilgan holda, akademik olimning O'zbekistonda milliy ilmiy kadrlar tayyorlash borasida qilgan ishlari haqida to'xtalmoqchimiz.

Habib Abdullayev ilm-fan taraqqiyotining asosiy omili sifatida malakali kadrlarni ko'rdi. U ilmiy salohiyatni oshirish, yoshlarni markaziy ilmiy markazlarga yuborish, aspirantura va doktorantura tizimini rivojlantirish hamda ayol olimlarni qo'llab-quvvatlashga katta e'tibor qaratdi. Shu jihatdan olimning faoliyati bugungi O'zbekiston ilm-fani rivojining tarixiy ildizlarini o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Habib Abdullayev o'z faoliyatida ilmiy maktab yaratish va yosh mutaxassislarni tayyorlashni ustuvor vazifa sifatida ko'rdi. U fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni mustahkamlash maqsadida ko'plab iste'dodli shogirdlarni tarbiyaladi. Uning rahbarligi ostida geologiya, mineralogiya va tabiiy fanlar yo'nalishida kuchli ilmiy maktab shakllandi. Akademik I.H.Hamroboyev, H.N.Boymuhammedov, E.M.Isamuhammedov, O.MBorisov kabi yirik olimlar aynan Habib Abdullayev ilmiy maktabining yetuk vakillari sifatida shakllandilar [4].

Olimning xizmatlari faqat O'zbekiston bilan cheklanib qolmadi. U Tojikiston, Turkmaniston va Qirg'izistonda ham geologiya sohasida faoliyat yuritgan yosh mutaxassislarning shakllanishiga yordam berdi. Jumladan, Tojikiston SSR Fanlar akademiyasi akademigi R.B.Baratov va boshqa ko'plab mutaxassislar uning ilmiy ta'siri ostida yetishib chiqqan. Habib Abdullayev yosh tadqiqotchilarni ilmiy faoliyatga jalb etishda shaxsiy tashabbus ko'rsatgan. U har bir aspirant bilan individual suhbat o'tkazib, ularning ilmiy salohiyati, hayotiy qarashlari va kelajakdagi maqsadlari bilan qiziqqan. Shu jihatdan u nafaqat olim, balki murabbiy va pedagog sifatida ham yuksak fazilatlarni namoyon etdi.

1956-1962-yillarda Habib Abdullayev rahbarligi ostida O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi tizimida katta o'zgarishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, ilmiy kadrlar tayyorlash tizimi tubdan takomillashtirildi. Shu davrda respublikada yadro fizikasi, kimyo, bioximiya, astronomiya, seysmologiya, kibernetika, arxeologiya va boshqa ko'plab sohalarda yangi ilmiy institutlar tashkil qilindi [5]. 1959-yilda O'zbekistonda birinchi atom reaktorining ishga tushirilishi ilm-fan tarixidagi muhim voqea bo'ldi. Bu jarayon ilmiy laboratoriyalar va tadqiqot markazlari faoliyatini kengaytirib, yangi mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qildi.

Habib Abdullayev ilmiy kadrlar tayyorlashda markaziy shaharlardagi ilmiy muassasalar bilan hamkorlikka alohida ahamiyat berdi. Uning tashabbusi bilan yuzlab yoshlar Moskva, Leningrad, Kiyev va Boku shaharlaridagi nufuzli ilmiy markazlarga aspirantura va doktoranturaga yuborildi. 1957-yilda 62 nafar, 1958-yilda esa 83 nafar o'zbekistonlik yosh mutaxassis markaziy ilmiy muassasalarda malaka oshirish imkoniyatiga ega bo'ldi [6]. Aspirantura tizimi ham sezilarli darajada kengaydi. Agar 1952-yilda Fanlar akademiyasi tizimida atigi 43 ta aspirantura o'rni mavjud bo'lsa, 1960-yilga kelib ularning soni 400 taga yetdi. Mutaxassisliklar nomenklaturasi esa 27 tadan 97 tagacha kengaytirildi [7]. Bu esa O'zbekistonda ilmiy salohiyatning keskin oshishiga zamin yaratdi.

Habib Abdullayev ayollarning ilm-fandagi o'rniga ham katta e'tibor qaratgan. U ilm-fan rivojida ayol mutaxassislarning faol ishtiroki muhim ekanligini yaxshi tushungan. 1960-yilda Fanlar akademiyasi tizimida ishlovchi ayollar soni 2768 nafarga yetgan bo'lib, ulardan 664 nafari o'zbek ayollari edi [8]. Shuningdek, ilmiy darajaga ega ayollar soni ham ortib bordi. 1960-yilda Fanlar akademiyasi tizimida mahalliy millat vakili bo'lgan 225 nafar ayol ilmiy faoliyat bilan shug'ullangan. Bu ko'rsatkich o'sha davr uchun katta natija hisoblangan. Habib Abdullayev ayollarni ilm-fanga jalb etish orqali jamiyatda ilmiy tafakkur va ma'rifat darajasini oshirishni maqsad qilgan edi. Uning bu boradagi siyosati bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Habib Abdullayev faoliyati davomida qator muammolar va qarshiliklarga ham duch keldi. Ayniqsa, markaziy shaharlarda tahsil olayotgan o'zbek aspirantlarining yashash sharoitlari og'ir bo'lgan. Arxiv hujjatlarida qayd etilishicha, Moskva va boshqa shaharlarda yashayotgan aspirantlar yotoqxona va moddiy ta'minot masalalarida kamsitilganliklarini bildirganlar [9]. Ba'zi hollarda mahalliy millat vakillariga nisbatan adolatsiz munosabat kuzatilgan. Aspirantlar tomonidan yozilgan ochiq xatlarda o'zbek yoshlarining markaziy shaharlarda turar joy va moddiy ta'minot borasida qiyinchiliklarga duch kelgani qayd etiladi. Bu esa sovet davridagi milliy siyosatdagi ziddiyatlarni ko'rsatadi.

Shunga qaramay, Habib Abdullayev yosh olimlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga intildi. U aspirantlar bilan muntazam aloqada bo'lib, ularga ilmiy rahbar topish, ilmiy markazlarga joylashish va moddiy yordam ko'rsatishda faol qatnashgan.

Akademik Izat Sultonning ta'kidlashicha, Habib Abdullayevning qisqa muddat ichida yuzlab o'zbek yoshlarini aspirantura va doktoranturaga yuborishi markazdagi ayrim shovinistik kuchlarga yoqmagan. Natijada olim siyosiy bosimlarga duch kelgan [10].

Habib Abdullayev faoliyati natijasida O'zbekistonda ilm-fan infratuzilmasi mustahkamlandi. 1940-yilda respublikada 75 ta ilmiy muassasa mavjud bo'lgan bo'lsa, 1957-yilga kelib ularning soni 98 taga yetdi [11]. Shu davrda O'zbekiston ilmiy xodimlar soni bo'yicha sobiq ittifoqda uchinchi o'rinni egallagan. 1957-yilda respublikada 6000 ga yaqin olim faoliyat yuritgan bo'lib, ulardan 200 nafari fan doktori, 2000 dan ortig'i fan nomzodi edi [12]. Bu ko'rsatkichlar Habib Abdullayev olib borgan siyosatning amaliy natijasi sifatida baholanishi mumkin. Olimning asosiy xizmatlaridan yana biri shundaki, u ilm-fanni faqat nazariy soha emas, balki jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida ko'rdi. U ilmiy salohiyatni milliy taraqqiyot bilan bog'ladi va yosh avlodni ilm-fanga keng jalb etishga erishdi.

Bugungi kunda O'zbekiston ilm-fan tizimida faoliyat yuritayotgan ko'plab yirik olimlar va mutaxassislarning shakllanishida Habib Abdullayev yaratgan ilmiy maktab va kadrlar siyosatining o'rni katta hisoblanadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, akademik Habib Abdullayev O'zbekiston ilm-fani tarixida yirik fan tashkilotchisi va milliy ilmiy kadrlar tayyorlash tizimining asoschilaridan biri sifatida muhim o'rin egallaydi. U ilmiy maktab yaratish, yosh mutaxassislarni tarbiyalash, ayol olimalarni qo'llab-quvvatlash hamda ilm-fan infratuzilmasini rivojlantirish orqali respublika ilmiy salohiyatining yuksalishiga katta hissa qo'shdi.

Olim faoliyati davomida turli siyosiy va tashkiliy qarshiliklarga duch kelgan bo'lsa-da, o'zining qat'iyati va vatanparvarligi bilan ilm-fan rivoji yo'lida fidokorona xizmat qildi. Uning ilmiy va tashkiliy merosi bugungi kunda ham O'zbekiston ilm-fani taraqqiyotida muhim tarixiy tajriba sifatida qadrlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Raupov R. Ustun (roman-xotira) Toshkent: Fan va texnologiya, 2005. -240-b
2. Shamsutdinov R.T., Xasanov J.M. Abdullayev Habib Muhamedovich (1912-1962) // Vodiynoma. 2017. №1 (3). – B. 76-80;
3. Shamsutdinov R.T. Abdullayev Habib Muhamedovich (1912-1962) // Vodiynoma. 2017. №2 (4). – B. 91-98; №3 (5) Maxsus son. – B. 74-78; №4 (6). – B. 41-55; №5 (7). – B. 34-36.
4. Qoraboyev Q. Habib Muhamedovich Abdullayev. – Toshkent, 1987. – B. 9–11.
5. Qahhorov A., G'afforova M. Habib Muhamedovich Abdullayev. – Toshkent, 1981. – B. 18.
6. O'zR FAMA, 1-fond, 1-ro'yxat, 1130-ish, 29-varaq.
7. O'zR PAA, 58-fond, 26-ro'yxat, 18-ish, 44-varaq.

8. O'zR FAMA, 1-fond, 1-ro'yxat, 895-ish, 100–103-varaqlar.
9. O'zR MDA, 2575-fond, 1-ro'yxat, 142-ish, 11-varaq.
10. Izzat Sulton. Biz vidolashgan emasmiz. – Toshkent: Fan, 1992. – B. 45.
11. Abdullayev H.M. O'zbekistonda sovet fanining 40 yilligi. – Toshkent, 1958. – B. 50–51.
12. Abdullayev H. O'zbekiston olimlarining faxrli vazifalari. // Fan va turmush. – 1959. – №2. – B. 4.